

**OILADA FARZANDLARNI RUHIY VA AHLOQIY
TARBIYALASHNING MUXIM AHAMIYATI**

Isroilov Raxmatjon Raxmonovich
Andijon viloyati Shahrixon agrotexnologiyalar
texnikumi psixologi



Annotatsiya: Ushbu maqolada eng oliy ne'mat - farzand, oilada farzandlarni ruhiy, ahloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati haqida, bola tarbiyasida oilaning, ota-onaning o'rnini, ularning bir-biriga, farzandiga bo'lgan muomalasining ahamiyati haqida, taniqli pedagoglarning bola tarbiyasi borasidagi fikrlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, tarbiya, imon-e'tiqod, odob-ahloq, xulq-atvor, sadoqat, vatanparvarlik, do'stona munosabat.

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”

Abdulla Avloniy

KIRISH

Oila - er, xotin va farzandlardai iborat. YA'ni oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir», - deydi Abdurauf Fitrat. SHaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlariga ega O'zbekiston davlatining ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega. SHaxsning shakllanishi, ma'naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o'rnini beqiyos bo'lib, jamiyatning asosiy guruxi xisoblangan oila, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xolda rivojlanib boradi. Uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, mazmuni, oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi mavjud ijtimoiy tuzumdagi mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, madaniy shart-sharoitlar bilan xam belgilanadi. O'zbekistonda oila masalalariga davlat siyosati darajasida karaladi. 2018 yilning 2 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-kizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash soxasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5325-sonli Farmonida boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlar oilani mustaxkamlashga xizmat kilishi; oilaviy munosabatlarni o'zaro muxabbat, ishonch va xurmat, xamjixatlik, bir-biriga yordam berish xamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi xissi asosida qurishdan, oila a'zolari o'z xukuklarini to'sqinliksiz amalga oshirishini xamda bu xuquqlarning ximoya qilinishini ta'minlashdan iborat ekanligi belgilab berilgan. Farmonda zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustaxkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borish zarurligi ta'kidlangan.

SHu ma'noda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash

bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturiga oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya, iktisodiy, xuquqiy bilimlar, tibbiy madaniyat, oilaviy munosabatlar psixologiyasi kabilarni yanada o'stirish maqsadida «Oila ensiklopediyasi»ni chop etish masalasi kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PK-3808-sonli Qaroriga binoan qabul kilingan O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustaxkamlash Konsepsiyasida "Oilaning tarbiyaviy-ta'lim saloxiyatini mustaxkamlash, jamiyatda an'anaviy oila qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma'naviy-axlokiy muxitni yaxshilash" uchun zarur bo'lgan ushbu vazifalar belgilab berilgan:

1. YOsh avlodda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni va ota-onaga xamda katta yoshdagi insonlarga xurmatni shakllantirish, oilaning tarbiyaviy va madaniy-ilmiiy saloxiyatini oshirish.

2. Oilaning birdamligini mustaxkamlashga, avlodlar o'rtasidagi o'zaro aloqani saklash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oilaviy an'analarni rivojlantirish.

3. Ota-onalari yoki vasiylari fuqarolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilgan voyaga etmagan bolalarni xuquqiy va ijtimoiy ximoya qilish, ruhiy qo'llab-quvvatlash tizim va mexanizmlari samaradorligini oshirish.

4. Oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan, ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, mojaroli va og'ir turmush sharoitini amaliy xal kilish mexanizmlarini joriy etish.

5. Oilaviy notinchlik, bolalarning nazoratsizligi va qarovsizligi, shuningdek, bolalar orasidagi xuquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga doir samarali mexanizmlarni joriy etish.

6. O'smirlar, yoshlar, yosh ota-onalar bilan ularning bilim darajasini oshirish va ibratli ota-onalik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish.

Bu vazifalarni mukammal bajarilishi uchun bilim, tajriba, o'g'it, tavsiyalar zarurligi, shubxasiz.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand

nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan ham ma'nan ulg'ayib, shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Demak, oila barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni ahloqiy, ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhimdir.

Insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak ahloq-odob qoidalarini singdirishda oilaning o'rni beqiyosligini bir so'z bilan ta'riflash kamlik qiladi. Yoshlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashda mas'uliyatlilik, vijdoniylik, fidoyilik kabi fazilatlar har bir hatti-harakatida namoyon bo'lishi bilan yuksak ma'naviyatligini ko'rsatadi. Bunda ota-onaning o'zaro farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari farzandlarining ham jismoniy ham ma'naviy sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Farzand yaxshi xulq-atvorga va aql-farosatga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik teran anglaydi va ezgu ishlarni amalga oshiradi. Aksincha bo'lsa, u bugungi kunda globallashib borayotgan tahlikali zamonda yot g'oyalarga asir bo'lishi, to'g'ri yo'lni yo'qotishi, qonunchilikni bilmasligi oqibatida jinoyat ko'chasiga kirishi mumkin.

Oiladagi tarbiya bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori, oilaviy muhitning sog'lomligi farzand kamolida katta ahamiyat kasb etadi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning ruhiyati va tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday nosog'lom muhitdagi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalardan "ma'naviy xasta" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham, uning kelajagiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hamma narsa, hatto, eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylik, sadoqatlilik, shirin so'z bo'lish bola kamolotidagi zarur hayotiy vositalardan biri ekanligini unutmazlik zarur. Chunki, yana bolalar tarbiyani atrof-muhitdan oladi, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-ahloqini qabul qiladi.

Albatta, bola tarbiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma yoki bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-ahloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalarga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiya bir muncha qiyinlashdi. Sababi shundaki,

jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada ota-onaning mas'uliyatini yanada oshirib bolaga estetik, diniy-ahloqiy, jinsiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, butun dunyoda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonida inson qalbi va ongini egallash, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy olamini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar, din niqobi ostidagi ekstremizm, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda mustahkam ma'naviy immunitetli, fikri tiniq, intiluvchan, o'zining kimligini, buyuk ajdodlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, oilasi, ona tiliga, millati, dini va an'analariga sodiq bo'lib kamol topishsin!

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent-Ilm Ziyosiy-2011
2. "Oilada barkamol avlod tarbiyasi" . T., "Fan va texnologiyalar", 2010
3. O.Hasanboyeva. "Barkamol avlod ma'naviyati" .T., "O'zbekiston".2010
4. "Bolajon" tayanch dasturi . T.,2010
5. Sh.Shodmonova "Maktabgacha pedagogika" T., "Fan va texnologiyalar", 2005 .